

# ЎТМИШГА НАЗАР

МАХСУС СОН

---

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

---

## LOOK TO THE PAST

SPECIAL ISSUE



**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Мургазаева Раҳбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**"Ўтмишга назар" илмий журнали таҳририй маслаҳат кенгаши**  
**редакционный совет научного журнала "Взгляд в прошлое"**  
**Editorial board of the scientific journal Looking into the past**

**Кебадзе Мадонна**

*Доктор исторических наук, Телавский  
государственный университет, Грузия*

**Бурдиашвили Майя**

*Доктор исторических наук, Телавский  
государственный университет, Грузия*

**Кожакеева Ляззат Темировна**

*тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети,  
Қозоғистон Республикаси*

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**

*тарих фанлари доктори, профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети*

**Бобожонова Дилором Бобожонова**

*тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети*

**Зияева Доно Ҳамидовна**

*тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎЗР ФА Тарих институти*

**Аширов Адҳам Азимбаевич**

*тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎЗР ФА Тарих институти*

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**

*тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎЗР ФА Тарих институти*

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**

*тарих фанлари доктори, Тошкент  
кимё - технология институти*

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**

*тарих фанлари номзоди, Ўзбекистон  
давлат жаҳон тиллари университети доценти*

**Эргашева Юлдуз Алимовна**

*Тарих фанлари доктори, профессор  
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти*

**Теймураз Ахалмосулишвили**

*профессор, Телавский государственный университет,  
Грузия*

**Халикова Раҳбар Эргашевна**

*тарих фанлари доктори, профессор, Тошкент  
давлат техника университети*

**Ишанходжаева Замира Райимовна**

*тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон  
Миллий Университети*

**Кобзева Ольга Петровна**

*тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон  
Миллий университети*

**Одилов Аброр Анварович**

*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон  
Миллий университети*

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**

*тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон  
Миллий университети*

**Саипова Камола Давляталиевна**

*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон  
Миллий университети*

**Джоробекова Айнура Эшимбековна**

*тарих фанлари номзоди, профессор, Ташқи ишлар  
вазирлиги қошидаги Дипломатия академияси,  
Қозоғистон Республикаси*

**Толипов Файзулла Саидович**

*Тошкент давлат техника университети доценти,  
тарих фанлари номзоди*

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

<b>СЎЗ БОШИ</b> .....	5
<b>1.Кобзева О. П.</b> ИПАК ЙЎЛИНИНГ ХИТОЙ ТАРИХШУНОСЛИГИДАГИ БАЪЗИ МАСАЛАЛАРИ.....	6
<b>2.Кебадзе М., Лекидзе Т.</b> XX ASARNING 30-YILLARIDA KAXETIDAGI REPRESSIYALAR ZEMO ALVANI VA KVEMO ALVANI QISHLOQLARI MISOLIDA.....	15
<b>3.Холиқова Р.Э.</b> БУХОРО ХОНЛИГИДАГИ РАБОТ ВА САРДОБАЛАР ҚУРИЛИШИ ТАРИХИДАН.....	19
<b>4.Муҳитдинова Ф.А.</b> СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ: ТАРАҚҚИЁТ ПОЙДЕВОРИ.....	27
<b>5.Ҳайдаров М.М.</b> УЧ РЕСПУБЛИКА КОНСТИТУЦИЯЛАРИДА (ТУРКИСТОН АССР, БХСР, ХХСР) СОВЕТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИНГ ҚОНУНИЙЛАШТИРИЛИШИ ВА МОҲИЯТИ.....	43
<b>6.Абраров С.А.</b> ҲОЗИРГИ ЗАМОННИНГ ГЛОБАЛ МУАММОЛАРИ ВА ЎЗБЕКИСТОН.....	51
<b>7.Рахмонқулова З.</b> XIХ- ХХ АСР БОШЛАРИДА ЎРТА ОСИЁ ХОНЛИКЛАРИ ВА УСМОНИЙЛАР ДАВЛАТИ ЎРТАСИДАГИ АЛОҚАЛАР ТАРИХИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	59
<b>8.Абдуллаев Ў.Ш.</b> ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ИСЛОҲОТЛАРДА ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТЛАРИНИНГ ЎРНИ.....	67
<b>9.Абдурасулова Д.Т.</b> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЖИЗЗАХ ШАҲАР САНОАТИ ТАРАҚҚИЁТИ ВА ИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ.....	72
<b>10.Абдурахманова Ж.Н.</b> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИНИНГ ГРЕК ХАЛҚИ ҲАЁТИГА ТАЪСИРИ (ЎЗБЕКИСТОНГА КЎЧИРИЛГАН ГРЕКЛАР МИСОЛИДА).....	79
<b>11.Азаматова Г.Б.</b> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ РОССИЯ ФЕДЕРАЦИЯСИ БИЛАН МИГРАЦИЯ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИГИ.....	85

## МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

- 12. Alimdjanov B.A., Jakparov J.I.**  
"SART" ATAMASINING KELIB CHIQISHI HAQIDA V.V. BARTOL'D,  
S.LAPIN ORASIDA MUNOZARA.....91
- 13. Амонова Ф.С.**  
XIX АСР ОХИРИ ВА XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА  
ТАШКИЛ ТОПГАН РУС САНОАТ КОРХОНАЛАРИ ҲАҚИДА.....99
- 14. Ахмедов Т.О.**  
"ЗАРАФШОН МУЗОФОТИНИ БОШҚАРИШ БЎЙИЧА МУВАҚҚАТ  
ҚОИДАЛАР"НИНГ ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА  
ЎРГАНИЛИШИГА ДОИР.....110
- 15. Аҳмедова Р.**  
ЎЗБЕКИСТОНДА ДАСТЛАБКИ ШИФО МАСКАНЛАРИНИНГ  
ВУЖУДГА КЕЛИШИ (ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МИСОЛИДА).....117
- 16. Бабаджанова Н.А.**  
ЎЗБЕКИСТОН АҲОЛИСИ МИЛЛИЙ ТАРКИБИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР  
(1946-1991 йиллар).....124
- 17. Бобожонов И.У.**  
МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИНИНГ  
ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ.....137
- 18. Бобожонов Ш.**  
ЗИЁРАТ ТУРИЗМИДА САЙФИДДИН БОҲАРЗИЙ  
ҚАДАМЖОСИНИНГ ЎРНИ.....145
- 19. Бабабеков А.Д.**  
XX АСР БОШЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ТОҒ ВА ТОҒОЛДИ  
ҲУДУДЛАРИ АҲОЛИСИ ЭТНОИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИДА  
САВДО-СОТИҚНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ  
(САНГЗОР-ЗОМИН МИНТАҚАСИ МИСОЛИДА).....153
- 20. Базарова М. М.**  
ЎРТА АСРЛАР ТУРОН ЗАМИН ОЛИМЛАРИНИНГ ЖАҲОН  
ИЛМ-ФАНИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ.....165
- 21. Bohodirov I.**  
TURKISTON BOSHQARUV TIZIMIDAGI NOMUTANOSIBLIK  
VA XALQ KOMISSARLARI SOVETIDAGI ICHKI ZIDDIYATLARNING  
O'LKA HAYOTIGA TA'SIRI (1917-1924 YILLAR).....171
- 22. Бегамова Н. Х.**  
МУҒУЛ ДАВЛАТИНИНГ ИЖТИМОЙ ТУЗИЛИШИ ВА ҲУДУДИ.....183

---

# ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

---


**Bohodirov Ihtiyor,**  
Toshkent moliya instituti  
Ijtimoiy fanlar  
kafedrası o'qituvchisi

## TURKISTON BOSHQARUV TIZIMIDAGI NOMUTANOSIBLIK-LAR VA XALQ KOMISSARLARI SOVETIDAGI ICHKI ZIDDIYATLARNING O'LKA HAYOTIGA TA'SIRI (1917-1924 YILLAR)

---

*For citation: Bohodirov Ihtiyor. IMBALANCES IN TURKESTAN GOVERNANCE AND INTERNAL CONTRADICTIONS IN THE SOVIET OF PEOPLE'S COMMISSARS SOVIET UNION (1917-1924). Look to the past. 2020, SI, pp.171-182*

---

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2020-SI-21>

### ANNOTATSIYA

Tadqiqotda Turkstonda Xalq Komissarlar Sovetining tuzilishi uning Turkiston siyosiy, ijtimoiy sohalarda olib brogan tadbirlari va ularning oqibatlarini va Turkiston o'lkasi va Turkiston xalq komissarlari sovetida hokimyat uchun bo'lgan kurashlaryoritilgan. Dissertatsiyada amalga oshirilgan qiyosiy tahlillar, nazariy umumlashmalar vatan tarixshunosligida "oq dog'lar"ga barham berish, o'lkamizning murakkab kechgan tarixini yanada kengroq tarzda yoritishga imkon beradi. Uning materiallari va ilmiy hulosalari vatanimiz tarixini yanada chuqurroq o'rganish imkonini yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Turkston, Xalq Komissarlar Soveti, Turkiston, ijtimoiy soha, o'lka, sovet hokimyati, vatan tarixshunoslik.

---

**Баходиров Ихтиёр,**  
Преподаватель кафедры Общественных наук  
Ташкентского финансового института

## НЕСОВЕРШЕНСТВО ТУРКЕСТАНСКОЙ АДМИНИСТРАЦИИ И ВЛИЯНИЕ ВНУТРЕННЕЙ НАПРЯЖЕННОСТИ НА

## НАРКОМОВ СОВЕТСКОГО СОЮЗА (1917-1924)

### АННОТАЦИЯ

Исследование освещает деятельность Туркестанского Совета Народных Комиссаров в Туркестане в политических и общественных кругах и их последствия, а также борьбу за власть в Туркестанском и Туркестанском Советах Народных Комиссаров. Сравнительный анализ и теоретические выводы, сделанные в диссертации, помогут искоренить "белые пятна" в отечественной историографии и полностью охватить сложную историю нашей страны. Его материалы и научные выводы позволяют нам глубже изучать историю нашей страны.

**Ключевые слова:** Туркестан, Совет народных комиссаров, Туркестан, социальная сфера, губерния, советская власть, отечественная историография.

**Bohodirov Ihtiyor,**  
Lecturer in the Department  
of Social Sciences,  
Tashkent Financial Institute

## IMBALANCES IN TURKESTAN GOVERNANCE AND INTERNAL CONTRADICTIONS IN THE SOVIET OF PEOPLE'S COMMISSARS SOVIET UNION (1917-1924)

### ABSTRACT

The study covers the activities of Turkestan Council of People's Commissars in Turkestan in political and social spheres and their consequences, as well as the struggle for power in the Council of People's Commissars of Turkestan and Turkestan. Comparative analyzes and theoretical conclusions made in the dissertation will help to eradicate the "white stains" in domestic historiography and to more fully cover the complex history of our country. Its materials and scientific conclusions allow us to study the history of our country more deeply.

**Index Terms:** Turkestan, Council of People's Commissars, Turkestan, social sphere, province, Soviet power, domestic historiography.

**D**olzarbligi. Tadqiq etilayotgan davrda Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlar Soveti faoliyati ko'plab ziddiyatli holatlar bilan kechgan, bir tomondan Markaz undan Turkistonda o'z hokimyatini amalga oshirishda asosiy bo'g'in sifatida foydalangan bo'lsa, ikkinchidan Xalq Komissarlar Sovetining asosiy vazifasi bo'lmish o'lkani boshqarish borasidagi faoliyati ham qoniqarli darajada olib borilmagan. Zero, bunga doimo Markazdan siyosiy tazyiqlar bo'lishi, XKSdagi ulug' davlatchilik-shovinizm qarashlari, XKS tarkibidagi ichki kurashlar, faoliyat va holatlarining cheklanganligi va boshqalar yo'l bermagan. Turkiston Xalq Komissarlar Soveti o'z faoliyatida juda ko'plab xatoliklarga ham yo'l qo'ygan. Markazdan yuboriladigan barcha mas'ul hodimlar, turli komissiya va tashkilotlar o'z siyosatini qo'g'irchoq organga aylanib qolgan o'lka XKS orqali yuritdilar.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Mustaqillik yillarida Xalq komissarlari sovetida ishlagan milliy rahbar kadrlar faoliyati, ularning Turkistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki

S.Azamxo'jayev, A.Ermetov, M.Haydarov, N.Polvonov Q.Rajabov, R.Abdullayev, Q.Rajabov, R.Murtazayevava boshqalarning qator asarlari va maqolalarida o'z aksini topgan. Maqolani yozish jarayonida umummilliy metodlardan foydalanildi, xususan, tizimli, tarkibli, funksional, qiyosiy tahlil, bashorat qilishning mantiqiy va tarixiy yondashuvlaridan keng foydalanildi.

### 3. Tadqiqot natijalari:

1917-yil 28-oktabr va 1-noyabr kunlarida sovetlar qurolli isyon yordamida Toshkent hokimyatni qo'lga oladilar. 1917-yil 15-22 noyabr kunlarida Toshkentda Turkiston ishchi va askar deputatlari Sovetlarining III qurultoyi bo'lib o'tadi. Bu qurultoyda Feodor Kolesov rahbarligigda o'lkada yangi kukumat - Turkiston xalq komissarlari soveti tashkil etilgan. Xalq komissarlari soveti sekin-asta butun Turkiston hududida o'z hokimyatlarini o'rnatish harakat qilgan. Hujjatlarning guvohlik berishicha sovet hokimiyati o'rnatilishi vaqtida Turkiston o'lkasi viloyatlari, shaharlari va uyezdlarida aholining hokimyat Sovetlarga o'tishini talab qiluchi faol chiqishlari kuzatilmagan. Aksincha, joylardan kelib turgan habarlar va telegrammalarda Muvaqqat hukumatni qo'llab-quvvatlash haqida gapirilar edi. Mahalliy aholini Oktabr to'ntarishiga munosabatini keyinchalik Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Abdulla Rahimboyev 1920-yil sentabrda o'lkada sovetlarining VII sezdida qilgan maruzasida quyidagicha takidlagan edi: "Musulmon aholisi har qanday yangi tartibotdan cho'chir edi. Sotsialistik revolyutsiya prinsplari unga begona edi, bu prinsplar aholining yevropali qismi tomonidan shubxali arzda qabul qilingan edi"[1]. O'lkada sovetlarining o'zi (Toshkent Sovetidan tashqari) hokimyatning Sovetlarga o'tishini yoqlab chiqmadilar, chunki ularning ko'pchiligini o'sha vaqtlarda koalitsion Muvaqqat hukumat va Turkiston komiteti tarkibiga kirgan eserlar va mensheviklardan iborat edi[2].

Turkiston ASSR rahbarlaridan biri keyinchlik quyidagi fikrni etirof etishga majbur bo'lgan edi: "Turkiston bir necha o'n yillar mobaynida chorizm mustamlakasi bo'lib keldi va bu hol barcha ijtimoiy kayfiyat va munosabatlarda o'zining o'chmas muxrini qoldirdi. Samoderjeviye tomonidan olib borilgan mustamlakachilik kayfiyati va siyosiy amaldorlar va xizmatchi unsurlardan tashqari, hatto rus temir yo'lchilariga ham o'z tasirini o'tqazgan edi. Shuning uchun to'ntarishning boshidanoq sovet hokimyatini bu yerda faqat rus kishilari amalga oshirdi. Tub aholidan esa mustamlakachi mahalliy hokimyatga aloqador kishilargina unda qatnashishi mumkin bo'lib, tub aholining qolgan qismi uchun bu g'oyalar begona va tushunarsiz edi"[3]. RKP(b) MK Turkiston byurosi tarkibida Petrogradan Toshkentga kelib ishlagan Georgiy Safarov 1917-yil Oktabr voqealarini, bolsheviklar partiyasining o'sha paytdagi mavqei va eserlar partiyasining nufuzini quyidagicha tasvirlagan edi: "Bolsheviklar partiyasi bu yerda voqealarni boshqarmaydi. Faqat ayrim bolsheviklar inqilob to'loqining ustiga chiqib oldilar. Partiya bo'lsa oktabr inqilobidan so'ng tashqil qilina boshlandi. (Ayrim arxiv xujjatlarida keltirilishicha, 1917-yil noyabrda Turkiston o'lkasida atigi 40 nafar bolshevik bo'lib, ularning 30 nafari Toshkentda ish olib bogan[4].) Mantiqqa zid bo'lishiga qaramasdan, Turkistonda bolsheviklar partiyasi sovet hokimyatini emas, balki sovet hokimiyati va sovetlar hokimyatini tashkil qilish zaruriyati bu yerda bolsheviklar va so'l eserlar partiyalarini yaratdi. Buning oqibati shu bo'ldiki, bolsheviklar va so'l eserlar partiyasi dastlabki kunlardan boshlab avanturistlar, amalparastlar va jinoyatchi unsurlar uchun boshpanaga aylandi. Xarakterli tomoni shundaki, "bolsheviklar" o'zlarini "bolsheviklar hukumat partiyasi" degan rasmiy nom bilan atamadilar□ Shuning uchun ham proletariat diktaturasi birinchi qadamidan boshlaboq tipik mustamlakachi ko'rinishida bo'ldi: rus ishchilari "Turkiston xalqlarini boshqarish"ni o'z qo'llariga oldilar"[5].

Inqilobdan so'ng Rossiya va u ishg'ol qilgan mustamlaka hududlarda huquqiy davlat g'oyalari real hayotdan butunlay istisno etilgan yangi bir davr boshlandi. Aniq hokimyat

yagonapartiya-davlat apparati qo'lidajamlangan bir sharoitdahr qanday norma, prinsip, qonunlarni inkor etish, mazkur hokimyatni xalqdan ajralib qolganligi nazariya va amaliyotda ijtimoiy hayotni adolat asosida huquqiy tashkil etishning to'la rad qilinishiga hamda totalitarizmga asoslangan davlat o'rnatilishiga olib keldi. Huquqiy davlatchilik nazariyasi va amaliyotining ko'p asrlik tajribasini qat'iy rad etildi. Bolsheviklar bularning o'rniga respublikaning Kommuna (Parij kommunasi), sovet respublikasi va xalq-demokratik respublikasi kabi uch yo'nalishi g'oyasini olg'a surganlar.

1917-yil kuzida Turkistondagi oz sonli bolsheviklar o'lkadagi butun hokimyatni qo'lga kiritish uchun shafqatsiz kurash boshladilar. 1917-yil 15-22 noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ishchi, soldat va dehqon deputatlarining III O'lka sezida hokimyat masalasida qizg'in munozaralar bo'ldi. Bolsheviklar guruhi koalitsion hukumat tuzish haqidagi taklifni rad etib, hokimyatning Rossiyadagidek bo'lishini yoqlab chiqdilar. Bolsheviklar nomidan nutq so'zlagan Butunrossiya Sovetlari MIK azosi F.I. Kolesov (1891-1940) quyidagicha izoh qildi: "Ishchi, soldat va dehqonlar g'alaba qozonishdi, shuning uchun hokimyatni faqat ular qo'llariga olishlari kerak"[6]. Bolsheviklar bilan so'l eserlar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq hukumat tarkibidagi 8 o'rin so'l eserlar va 7 o'rin bolsheviklar va maksimalistlarga berildi. Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlar Soveti tarkibiga quyidagi 15 kishi kiritilgan:

1. F.I.Kolesov - XKS raisi hamda temir yo'llar, pochta va telegraf komissari;
2. V.V.Zelesskiy - XKS 2-raisi hamda tashqi ishlar va adliya komissari;
3. P.V.Chegodaev - kotib;
4. E.D.Perfilev va Stasikov- ikkita harbiy komissar;
5. P.G.Poltoratskiy- mehnat komissari;
6. Permezskiy - maorif komisari;
7. F.S.Barankin - sog'liqni saqlash komissari;
8. Domogatskiy - yer ishlari komissari;
9. Kotelnikov - moliya va 2 - oziq-ovqat komissari;
10. .Y.Uspenskiy - maxsus topshiriq komissari[7].

Ushbu komissarlarda Zelesskiy, Chegodaev, Perfilev, Stasikov, Permezskiy, Barankin, Domogatskiy, Uspenskiy, Kotelnikov va Shevtsovlar so'l eserlar va Menshevik-internatsionalistlar bo'lishgan[8].

Oktabr to'ntarishidan so'ng, Rossiyadagi eserlar partiyasi ichida bo'linish yuz bergan. 1917-yil 2-dekabrda eserlarning so'l qismi mustaqil so'l eserlar partiyasini tuzishgan. So'l eserlar sovet hokimyatini va bolsheviklarni qo'llab-quvvatlashgan. 1918-yil aprelda so'l eserlar partiyasining azolari 62651 nafar kishidan iborat bo'lgan. "Znamya truda" gazetasi so'l eserlar partiyasining markaziy nashri hisoblangan. So'l eserlar partiyasining rahbari A.L.Kolegaev 1917-yil 25-noyabrda Butunrossiya MIK tomonidan Rossiya yer ishlari lavozimiga tayinlangan. 1917-yil 9-dekabrda RSFSR XKS tarkibida so'l eserlardan:

1. I.Z.Mgeynberg - adliya komissar;
2. P.P.Proshyan - pochta va telegraf komissari;
3. V.E.Trutovskiy - shahar va mahalliy boshqaruv komissari;
4. A.A.Izmaylovich - respublikadagi saroylar komissari;
5. V.A.Algasov va V.A.Karelin - ichki ishlar kollegiyasi tarkibida ishlash uchun "portfelsiz ministrlar" sifatida kiritilgan[9].

Shuning uchun Turkiston o'lkasidagi so'l eserlar ham sovet hokimyatining dastlabki davrida - 1917-yil noyabrdan to 1919-yil boshlarigacha bolsheviklar bilan hamkorlik qilishdi. Turkiston o'lkasida sovet avtonomiyasi e'lon qilinganda (1918-yil 30-aprel) davlat organlari va hukumat tarkibi bolsheviklardan va so'l eserlardan iborat bo'lishi rasmiy

tarzda tantnanali tarzda e'lon qilingan edi. Biroq Turkiston ASSR XKS va MIK tarkibining har ikkala partiya azolaridan proportsional tarzda tuzilganligi, so'l eserlar va bolsheviklar hukumronligi uzoq vaqt davom etmadi. Siyosiy etiqodlarning o'zgachaligi, so'l eserlarning kelib chiqishi (ularning ko'pchiligi mulkdorlar sinfiga taaluqli bo'lgan) biroz keyinroq bolsheviklarning jazo organlari tomonidan ularning jazolanishiga asos bo'ldi. Ikki partiyaviy hukumronlik qisqa vaqt davom etib, provardida bolsheviklar o'zlarining ittifoqchilari bo'lgan so'l eserlarni hokimiyat uchun kurashda yanchib tashlashgan.

Aslini olganda Turkiston bilsheviklari o'zi 1918-yil iyuniga qadar ham hali yagona tashkilot sifatida uyushib shakllanmagndi. Chunki o'lkada bolshevikarning mahalliy tub aholi o'rtasida na moddiy va na manaviy bazasi yo'q edi. Bolshevizm g'oyalari mahalliy aholi uchun tushunarsiz va begona bo'lgani sababli keng mehnatkashlar ommasi unga ergashmadi. 1918-yil iyun oyiga kelganda o'lkada 20 ta bolshevistik partiya tashkiloti bo'lib, ularning safida 2000 ga yaqin tashkilot azosi bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ammo bu azolarning deyarli hammasi asosan yevropaliklarga mansub bo'lgan kishilar edilar.

1918-yil V.I.Leninga uyushtirilgan suiqasd bahonasi bilan mamlakatdagi barcha muxolif partiyalar faoliyati taqiqlab qo'yildi. Rossiya Kommunistik partiyasi o'zining yakka boshchilikdan iborat mavqeyini saqlab qolish va mustahkamlash uchun mustamlaka bo'lgan o'lkalar va hududlarda, shu juladan, Turkistonda ham o'zining ishonchli boshlang'ich tashkilotini shakllantirmog'i kerak edi. Kompartiya mana shunday filiallar orqali juda katta hududni egallab olgan davlatning boshqaruv va idora tizimini o'z qo'l ostida osonroq qamrab olishi lozim bo'lgan. Shu maqsadda V.I.Lenin V.D.Votinsev, N.S.Kachuriner M.Troitskiylarni 1918-yil birinchi yarmida Turkiston kompartiyasini tuzish uchun Toshkentga yubordi. Ularning say-harakatlari bilan 1918-yil 17-25 iyunda Toshkentda Turkiston bolsheviklarining o'lka konferensiyasi bo'lib o'tdi. U Turkiston bolsheviklar (kommunistlar) partiyasining I syezdi deb nomlandi. Konferensiyada 1500 atrofidagi partiya azolaridan 43 ga yaqin vakil ishtirok etgan[10]. O'lkadagi kommunistik guruhlar ushbu syezdda ilk marta tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilib, Rossiya Kommunistik Partiyasi tarkibidagi Turkiston Kommunistik partiyasiga asos solindi. Respublika siyosiy hayotida TKP yetakchilik mavqeini egalladi. Syezdda I.Tobolin raisligidagi 7 kishidan iborat Markaziy Komitet saylandi. TKP MK tarkibiga mahalliy kommunistlardan Nizomiddin Xo'jayev ham kiritildi. Qolgan barcha azolar yevropaliklardan saylandi. Bular: I.Tobolin (rais), A.Solkin, V.Votinsev, M.Troitskiy, K.Sorokin va P.Yermolovlardir[11]. Kommunistik partiya azolari soni tez o'sadi. 1919-yil martiga kelib uning saflaridagi azolari 56,7 mingga yetdi[12].

1918-yil 5-14 oktabrda Turkiston o'lka sovetlarning favqulodda VI qurultoyi chaqirildi. Qurultoyda TASSR konstitutsiyasi qabul qilindi. U aslida 1918-yil 10-iyunda Butunrossiya Sovetlarining II syezdida qabul qilingan RSFSR konstitutsiyasi andozasi edi. Bu holatni Turkiston sovet hukumatining rahbarlaridan biri A.F.Solkin o'z nutqida quyidagicha etirof etgan edi: "Sovetlarning II syezdida Turkiston Respublikasi konstitutsiyasini yaratish uchun tuzilgan komissiya hech qanday ish qilmadi. Qachonki telegraf orqali Butunrossiya konstitutsiyasi olingach, Turkiston Respublikasining Konstitutsiyasining asosiy qoidalari ishlab chiqildi"[13]. Turor Risqulov esa unga shunday baho bergan: "Turkistonning konstitutsiyasi Rossyanikidan ko'chirib olingan va uni jiddiy o'zgartirishga to'g'ri keladi"[14].

Qurultoy davomida yangi tarkibdagi MIK (raisi - V.Votinsev) va XKS (rais - V.D.Figelskiy) saylandi. Bunda XKS tarkibi ilk bor nuqul kommunistlardan tuzildi. Holbuki Turkistondagi avvalgi sovet hukumatlari tarkibida bolsheviklardan tashqari so'l eserlar, mensheviklar, maksimalistlar, internatsionalistlar kabi siyosiy partiyalarning

vakillari bor edi. Bu holat Turkistondagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirib yuboradi. Chunki bu paytda o'lkadagi siyosiy va iqtisodiy ahvol o'ta qaltis edi[15].

1918-yil ikkinchi yarmida kompartiya va XKS da ichki vaziyat keskinlashadi. Bu keskinlik ayniqsa yuqori davlat lavozimlarga o'tirib olgan "eski kommunistlar" guruhi (Kolesov, Tobolin va boshqalar) va Markazdan kelgan hodimlar "yangi kommunistlar" guruhi o'rtasida kuchayib ketdi. Ulug' davlatchilik siyosat va shovinizmning ashaddiy tarafdori bo'lgan I.Tobolin o'lka sovetlarining qurultoyida alamzadalik bilan shunday degan edi: "Turkistonda inqilobni men amalga oshirdim. Sizlarni bolshevik qilgan ham men. Sizlarga bo'ysunishni istamayman"[16].

Turkiston o'lka sovetlarining VI syezdi qarori bilan Tobolin va Kolesov barcha rahbarlik lavozimlaridan chetlatildi. Ular esa o'z atroflariga tarafkashlarini to'plab rahbarlik lavozimlariga yangi kelganlarga qarshi kurashni avj oldirdilar. Turkiston o'lkasida tang siyosiy vaziyat vujudga keldi. Ish shu darajaga borib yetdiki, mojaroni tinchitish maqsadida favqulodda tergov guruhi tuzildi. Bu muammo 1918-yil 17-19 dekabrda TKP ning II qurultoyigacha davom etdi. "Eski kommunistlar", Tobolin va Kolesov syezdda o'z xatolariga iqror bo'ldilar. Syezd "eski kommunistlar" guruhining nifoqchilik faoliyatini qoraladi va ulardan partiya intizomiga bo'ysunishni talab qildi.

Turkistonda yuqori davlat organlarida ichki hokimiyat talashuv natijasida vujudga kelgan siyosiy bo'hron o'lkada kompartiya va XKS ning obro'sini tushurib yubordi. Bu kurashga hatto harbiy qo'shin rahbariyati ham aralashdi va o'lkada harbiy to'ntarish yasab hokimiyatni o'z qo'lga olmoqchi bo'ldi. Turkiston sovetlar hukumatini ag'darish maqsadida 1919-yil yanvarda XKS tarkibidaisyon yuz berdi. Isyonga XKS harbiy komissari K.Osipov boshchilik qildi.

K.Osipov 1913-yil bolsheviklar partiyasiga azo bo'lgan. U o'ta ketgan shovinizt va mansabparast bo'lib, Turkiston muxtoriyatini tor-mor qilishda faol qatnashgan. Sovet davri tarixchiligida bu isyon ingliz razvedkasi va Rossiyadagi kontrevolutsoion kuchlar bilan bog'lanadi. Osipov Turkistonda harbiy diktaturao'rnatishni maqsad qilgan edi. Ana shu maqsadda 1919-yil 18 dan 19 yanvarga o'tar kechasi sovetlarga qarshi K.Osipov boshchiligida isyon boshlandi. Uni XKS azolaridan Agapov va Uspenskiy qo'llab-quvvatladilar. Isyonchilar Turkiston kompartiyasi va sovet muassasalarining ko'zga ko'ringan rahbarlarini aldov yo'li bilan sobiq 2-Sibir o'qchi askarlar polkining harbiy shaharchasi hududiga olib kelishga muvaffaq bo'ldilar va ularni vahshiylarcha otib o'ldilar. Jami bo'lib o'ldirilganlar soni 35 kishini tashkil etdi. Ulardan 14 tasi XKS komissarlari bo'lgan. Bular: V.D.Votinsev - TASSR MIK raisi, V.D.Figelskiy - TASSR XKS raisi, A.N.Malkov - ichki ishlar xalq komissari va XKS kotibi, A.Y.Pershin - oziqi-ovqat komissari, E.D.Dubitskiy - Yo'llar xalq komissari, M.A.Kachuriner - Moliya xalq komissari va Toshkent shahar kasaba uyushmalari kengashi raisi, I.P.Fomenko - respublika favqulodda tergov qo'mitasi (CHK) raisi, N.V.Shumilov - Toshkent shahar soveti raisi, V.N.Finkelshteyn - Toshkent shahar kengash raisi o'rinbosari, A.V.Chervyakov - Turkiston respublikasi harbiy dala sudi raisi, D.G.Shtilkov - partiya drujinasining komandiri, M.N.Troitskiy - "Туркестанский коммунист" va "Красноармеец" gazetalarining muxarriri, S.P.Gordeyev - Toshkent shahar bolshevistik partiyasi qo'mitasining azosi, Shahar soqchilari boshlig'ining yordamchisi - G.I.Lugin va boshqalar edi[17].

1919-yil 19-yanvar ertalabgacha isyonchilar hukumat muassalari joylashgan Hurrayat uyi, Tuproqqo'rg'on (hozirgi Prezident mahkamasi binosi o'rnida) va Bosh temiryo'l ustaxonasidan boshqa shaharning barcha idoralarini egallab oldilar. Isyonchilar maxsus varaqa-chaqiriq bilan xalqqa murojaat qildilar. Unda jumladan shunday deyilgan edi:

"Sovetlar hokimiyati ag'darildi... Endilikda bolsheviklar merosining og'ir yukini o'z zimmasiga oladigan muvaqqat hukumat sizni o'g'ishmasdan xalq hokimiyati g'oyasini amalga oshirishga - Ta'sis Majlisiga boshlab boradi[18]. Ammo isyonchilarning niyati amalga oshmadi. Isyon sovetlarga sodiq kuchlar tomonidan bostirildi. Xususan, harbiy instruktorlar maktabining tinglovchilari ko'rsatgan sabot va matonati hal qiluvchi ro'l o'ynadi. Bu isyonni bartaraf qilishda Eski shahar soveti raisi N.Xo'jayev boshchiligida Toshkent Eski shahar milliy partiya drujinasi ham faol ishtirok etgan.

Osi pov isyoni bostirilgach, 21-yanvarda so'z eserlar tuzgan Harbiy-inqilobiy qo'mita, Turkiston MIK, XKS Sirdaryo viloyati Ijroiya qo'mitasi, Toshkent shahar soveti ijroiya qo'mitasi, harbiy qismlar, kasaba tashkilotlarining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Unda bolshevik A.A.Kazakov boshchiligidagi Turkiston Respublikasi Muvaqqat Harbiy-inqilobiy kengashi saylandi. Uning tarkibiga A.P.Salikov, S.Z.Rubtsov, P.I.Ilyasov, P.Yeliseyev singari bolsheviklar bilan bir qatorda 8 so'l eser ham azo bo'lib kirdi. Muvaqqat harbiy-inqilobiy kengash tarkibiga N.Xo'jayevdan boshqa tub yerli aholi vakillaridan hech kim kiritilmadi. Anashu tariqa Osi pov boshchiligida uyushtirilgan isyon barham topdi.

TASSR da hokimiyatda vujudga kelgan bo'shliqdan foydalangan Markaz o'z manfaatlarini so'zsiz ijrochisi bo'lgan o'z emissarlarini jo'nata boshladi. Isyon tufyli Turkiston Markaz bilan vaqtinchalik bog'lanib turgan qisqa vaqt ichida (1919-yil yanvar-aprel) o'lkaga tajribali "partiya va sovet hodimlari" dan iborat emissarlar yuborish muntazam yo'lga qo'yildi. 1919-yil 12-fevrla RKP(b) MK va RSFSR XKSning Turkiston ishlari bilan shug'ullanuvchi alohida muvaqqat komissiya (Turkkomissiya) tuzildi. Uni tarkibiga dastlab SH.Z.Eliava, A.S.Kiselyov, P.A.Kobozev, 17-martda F.I.Goloshchekin va G.I.Bokiy kiritildi. Bu komissiyadan P.Kobozev 4-martda Toshkentga yetib keldi. Unga isyon natijasiga deyarli rahbariyatsiz qolgan Turkiston Respublikasida butun boshqaruvni qo'lga olishi, o'lkada RSFSR hukumati dekret va qarorlari so'zsiz bajarilishini qat'iy nazorat qilishi kerak edi.

1919-yil 8-oktabrda Turkkomissiyaning Sh.Z.eliava (rais), V.V.Kuybishev (rais muovini), M.V.Frunze, G.I.Bokiy, F.I.Goloshchekin, Y.E.Rudzutakdan iborat tarkibini tuzish to'g'risidagi qarori imzolandi. 1919-yil 4-noyabrda Turkkomissiyaning asosiy tarkibi Toshkentga yetib keldi. Turkiston komissiyasi amakda mindaqadagi barcha partiya, sovet, xo'jalik va harbiy tashkilotlarga rahbarlik qilib, markazdagi bolshevistik siyosatni qat'iy ravishda amalga oshirishga kirishdi. Turkkomissiya o'lka tarixida o'ta mash'um rol o'ynadi.

Turkkomissiya azolari o'rtasida vazifalar quyidagicha taqsimlangan:

1. Sh.Z.Eliava - komissiya raisi. Unga Turkiston sovet va mamuriy muassasalariga rahbarlik qilish ham topshirilgan;

2. V.V.Kuybishev - harbiy siyosat masalalari bilan shug'ullangan. U 1920-yil mayidan boshlab turkkomissiyaga rahbarlik qilgan;

3. F.I.Goloshchekin - Kuybishev bilan birga partiyaviy ishlarga rahbarlik qilgan;

4. Y.E.Rudzutak - iqtisodiy siyosat va oziq-ovqat organlariga rahbarlik qilgan;

5. M.V.Frunze - bevosita harbiy harakatlar bilan shug'ullangan;

6. G.I.Bokiy - favqulodda komissiya (ChK) organlari va Turkiston frontining Maxsus bo'lim ishlarini nazorat qilishi lozim edi[19].

Biroz keyinroq Markaz Turkkomissiya faoliyatini yananda kuchaytirish hamda partiyaviy rahbarlikni amalga oshirish uchun yana yangi tashkilot tuzdi. 1920-yil iyulda RKP(b) MKning Turkiston byurosi (Turkbyuro) tashkil etilib Toshkentga yuborildi. Turkbyuro partiya tashkilotlarini nazorat qilishi, respublika kommunistlarining "g'oyaviy markazi" bo'lishi kerak edi. Turkiston byurosini 1920-1922 yillarda navbati bilan G.Y.Sokolnikov, Y.E.Rudzutak, A.A.Ioffe va S.I.Gusev boshqardi.

Bu ikki tashkilot shakllantirilgach o'lkadagi siyosiy hayot tubdan o'zgardi. Endi TASSR da aslida Turkiston XKS emas, balki Turkiston komissiyasi va Turkbyuro hukumron edi. Hududdagi barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalar faqat shu tashkilotlar ruxsati va roziligi bilan amalga oshirildi.

1919-yil 7-31 martda Kobozev rahbarligida bo'lib o'tgan O'lka sovetlarining favqulodda VII qurultoyi Turkistonni ijtimoiy-siyosiy hayotida sezilarli darajada tasir qildi. Kobozev o'z maruzasida o'lkada so'l eserlar tashkiloti halokatga uchraganligini va Turkistonda ham bir partiyaviy tizim o'rnatilganligini e'lon qildi. May oyida Dashnoqsutyun partiyasi faoliyatiga ham chek qo'yildi. Qurultoyda Turkiston ASSR XKS va MIKning yangi tarkibi shakllantirildi. MIK raisligiga A.A.Kazakov, XKS raisligiga Karp Yeliseyevich Sorokin saylandi[20]. Qurultoyda TKP MK qoshida Turor Risqulov boshchiligida O'lka Musulmonlar byurosi ham tashkil etildi.

Turkistonning yangi hukumati faoliyati davomida, bu hukumat ham avvalgilaridek buyuk davlatchilik shovinizmi tarafdori ekanligi oydinlashdi. Markaz tomonidan o'lkda milliy ozodlik harakatlari kuchayganligi sharoitida mahalliy aholiga munosabatini o'zgartirishga majbur bo'ladi. RKP(b) MKning 1919-yil 12-iyulida TKP Turkiston MIK va XKS ga yo'llagan radiogrammasida mahalliy aholini davlat faoliyatida ishtirok etishga keng jalb qilish zarurligini aytadi. Nomzodlar partiyaga mansubligi shart bo'lmay, musulmon ishchi tashkilotlari tomonidan ko'rsatilganligi kifoya bo'ladi deyilgandi. Ammo o'lkadagi ulug' davlatchilik g'oyalariga qattiq yopishib olgan yuqori rahbar kadrlarning "Aktiv guruh" deb nomlangan guruhi bunga qarshi chiqdilar. Bu guruhga XKS raisi K.E.Sorokin, MIK raisi A.A.Kazakov, uning o'rinbosari K.Uspenskiylar kirgan edi. Ular RKP(b) MKga yo'llagan telegrammalarida o'lkani boshqarishga mahalliy aholini keng jalb qilish haqidagi Markaz direktivini tezlik bilan bajarish mazkur mintaqadagi sovet hokimyatining halokatiga olib kelishi mumkinligini isbotlashga urunganlar[21]. A.A.Kazakov 1919-yil 24-mayda o'lka musulmon kommunistlarining I O'lka konferensiyasida shunday degan edi: "Turkiston jumhuriyatida 95% musulon va 5% ruslar yashaydilar va shu 5% butun hokimyatni deyarli o'z qo'lida ushlab turdilar. Shunday qilib, ozchilik hokimiyati davom etmoqda. Lekin bu vaqtinchalik hol. Musulmon dunyosi tayyor bo'lgach, biz jumhuriyatni boshqarish ishini unga topshiramiz. Biz ularga yordam beramiz"[22].

"Aktiv guruh" va ularning maslakdoshlari Turkiston o'lkasidagi mahalliy aholi savodsiz, proletariat yo'q, shu boisdan ular hokimyatni mustaqil boshqarishga tayyor emas degan assosiz uydurmalarini ilgari surdilar. Bunday g'oyani Turkiston kompartiyasining 1919-yil iyundagi III syezdida P.G.Konstantinopolskiy quyidagicha ifoda etgandi: "ochiq aytamanki, Turkistonda proletariat yo'q, yarim proletariat bor, ezilgan yo'qsillar bor, ezilgan dehqonlar bor, nazarimda, bu omma tarixiy jarayonni ilgari suradigan inqilobiy kuch bo'la olmaydi"[23].

Turkiston o'lka Musulmonlar byurosining faol say-harakati va milliy vatanparvarlik kuchlarining TASSR rahbar hodimlari orasida buyuk davlatchilik kayfiyatini olib boruvchilarga qarshi kurash natijasida 1919-yil sentabrda bo'lib o'tgan TKP IV syezdi va O'lka sovetlarining VIII syezdi Turkiston MIK raisi Aristrax Andreyevich Kazakov va Turkiston XKS raisi Karp Yeliseyevich Sorokinlarning buyuk davlatchilik-shovinistik og'machiligini fosh qildilar va mahalliy aholi vakillarini davlat qurilishiga jalb qilish chora-tadbirlarini belgiladilar[24]. Kazakov va Sorokin o'z lavozimlaridan bo'shatildi. Markaz birmuncha yon berishlar qildi. Mahalliy millatlarning vakillari 1920-yil o'rtalaridan rahbarlik lavozimlariga bir qadar kengroq ko'tarila boshladilar.

Turkistonda sovet hokimyatini o'rnatilishi, uni avtonom sovet respublikasi deb e'lon

qilinishi va Turkiston XKS ning dastlabki yillardagi (1917-1920 y.) faoliyatidan shuni xulosa qilish mumkinki, oktyabr to'ntarishidan keying barcha ozgarishlar Turkiston xalqlarining hohish-irodasi bilan amalga oshirilmadi, balki Moskvning brevosita ko'rsatmasi bilan bir guruh bolsheviklar va so'l eserlar tomonidan amalga oshirildi. Ular faqat proletariat orasidan chiqqan va hukumron partiyalarga mansub mahalliy bo'lmagan aholi manfaatlarini ko'rdilar. Ular respublikani boshqarishga kelar ekanlar, markaz siyosatini qattiq turib amalga oshirdilar, Turkiston xalqlari emas, balki markazga astoydil xizmat qildilar. Bularning hammasi tabiiy ravishda mahalliy aholini, ayniqsa milliy vatanparvarlar noroziligining kuchayishiga olib kelgan.

1921-1924 yillardagi Turkistonda sovet hukumatining faoliyati yangi o'ziga hos hususiyatlar kasb etgan. Bu davrda sovet hukumati oktabr to'ntarishi, istiqloqlolchilarga qarshi kurash, "harbiy kommunizm" siyosati oqibatida vayronaga aylangan xalq xo'jaligini tiklash va turli ijtimoiy kuchlar, ijtimoiy harakatlar siyosiy kurashlarining kuchyganligi, komunistik rahbariyatning "sotsialistik qurilish" strategiyasini isloh qilish borasidagi dastlabki urinishlari va Turkiston bilan Markaz o'rtasida imperiyacha munosabatlarning yanada mustahkamlanishi bilan ajralib turdi.

Bu yillarda Markaz muntazam ravishda Turkistonda o'z tasirini mustaxkamlashga intilib, o'lkadagi mahalliy kadrlar ustidan markaziy nazoratni amalga oshirish uchun masul hodimlarni yuborib turishni ancha kuchaytirdi. 1920-1923 yillarda Turkistonga o'zining 1396 nafar vakilini yubordi. Ular orasida S.M.Budyonniy, G.I.Broydo, G.Bokiy, S.Gusev, V.V.Kuybishev, S.S.Kamenev, L.M.Kaganovich, F.Goloshchekin, A.Ioffe, V.Novin, Y.E.Rudzutak, Y.X.Peters, S.Sokolnikov, G.Safarov, S.Orjonikidze, M.Tomskiy, L.D.Trotsky, M.V.Frunze, Sh.Eliava va boshqa taniqli sovet namoyondalari bor edi[25]. Sovet davlati o'z hukumronligi yillarida bu tajribani muttasil ravishda amalga oshitib turdi.

Biroq, markaziy hokimiyat "nazoratchilardan ko'ra" ko'proq harbiy kuchga ishonardi. Shu sababdan 20-yillarning boshidanoq qizil armiyaning Turkiston, Buxoro va Xorazmdagi askarlari soni 200000 mingdan ortiq edi[26].

Shuningdek mahalliy aholi orasidan chiqqan mansabdor shaxslar qatlami ham asta-sekinlik bilan ko'payib bordi. Masalan, 20-yillar boshlarida o'lkada partiya-davlat darajasidagi rahbarlar guruhiga Turor Risqulov, Nazir To'raqulov, Qayg'usiz Otaboyev, Abdulla Rahimboyev, Inomjon xidraliyev, Nizomiddin Xo'jayev va boshqalar ko'tarildi. Biroq ularning lavozim darajasidagi siyosiy mavqeyi va tasiri cheklangan edi.

20-yillarning boshlarida o'lkadagi sovet hukumati o'zining tasir doirasida bo'lmagan qishloq va ovullarni "sovetlashtirishga" juda katta ahamiyat berdi.

Turli qarshiliklarga qaramay o'lkada qattiq markazlashtirish siyosatini izchillik bilan amalga oshirilishda davom etdirildi. 1922-yil mayida RKP(b) Turkbyurosi O'rta Osiyo byurosiga aylantirildi, uning nazorat doirasiga endi butun O'rta Osiyo va Qozog'iston kirar edi. 1923-yilning 9-martida o'rta Osiyo iqtisodiy kengashi - СредазЕКОСО tashkil etildi, u Moskvaning ko'rsatmalariga muvofiq O'rta Osiyo davlatlarini iqtisodiy jihatdan birlashtirib, RSFSRning umumiy iqtisodiy izmiga solishi va sotsialistik qurilish jarayonini markaz manfaatlarini asosida yo'naltirib turishi lozim edi. 10 kishidan iborat O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi Prezidiumi tuzildi. Unga RSFR dan 1 vakil (Lyubimov), Turkistondan 4 ta vakil (Xidraliyev, Paskutskiy, Pribitkov, Risqulov), Buxorodan 3 ta vakil (Ota Xo'jayev va boshqalar), Xorazmdan 2 ta vakil (Yakubov, Sarsonboyev) saylandi. O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi raisi qilib Turkiston Iqtisodiy Kengashi boshligi S.Paskutskiy tayinlandi[27].

O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi haqidagi Nizomda Turkiston, Buxoro va Xorazm Iqtisodiy

Кенгашлари СредазЕКОСО ning nizomi asosida harakat qilishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, bu kengash SSSR ning Mehnat va mudofaa kengashi tashkiliy strukturasi ga kirishi va uning umumiy direktivlari asosida faoliyat ko'rsatishi alohida takidlandi.

1922-yil 30-dekabrda Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi (SSSR) tashkil topgach, sovet davlatlari tarkibiga RSFSR orqali Turkiston ASSR ham kirishga majbur bo'lgan. O'zbekiston SSR tashkil topib (1925-yil 17-fevral) va u ham SSSR tarkibiga qabul qilingach (1925-yil 13-may) mintaqada sovet hokimyatining ikkinchi bosqichi boshlandi (1925-1991 yu.) boshlandi. Bu bosqichda O'zbekiston hududida sovet hokimiyati mustahkam qaror topdi, rivojlandi va tanazzulga uchradi.

#### 4. Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda o'lkada Turkiston XKS emas, balki Turkiston komissiyasi, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi va O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi hukumron edi. Turkiston SSR, BXSР, va XXSRda barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalar faqat shu tashkilotlar ruxsati va roziligi bilan amalga oshirildi, Turkiston xalq komissarlari soveti esa Markaz buyruqlarini o'lkada amalga oshirib beradigan ijrochi tashkilot vazifasini bajarib bergan. Markazning vakolatli organlari o'lkadagi sovetlashtirish jarayoni, O'rta Osiyoda o'tqazilgan milliy-hududiy chegaralanish, kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosati, industrilashtirish, Turkistonni xomashyo bazasiga aylantirish, mulkdorlarni sinf sifatida tugatish, O'rta Osiyo va Qozog'istonda repressiyalarni ham bevosita Turkiston XKS orqaliyo'naltirib turgan. Turkkomissiya, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi, Средаз ЕКОСО markazning mintaqa ustidan nazorat qiluvchi maxsus boshqaruv organlari edi. Turkiston raxbariyati bu tashkilotlarga so'zsiz bo'ysunishga majbur edi. O'lka hukumatining ichida ham doimo yagona birlik bo'lmagan. U faoliyat ko'rsatgan 1917-1924 yillarda XKS tarkibida haokimyat uchun kurashlar bilan o'tgan. Bu esa Markazning kurashayotgan tomonlar o'rtasida hakamlik qilish maqomini bergan.

#### Иқтибослар/Сноски/References:

[1]. Ўз МДА, 17-фонд, 1-рўйхат, 40-иш, 14-19 varaқлар. (CSAUz. fond 17, list 1, work 40, p. 14-19.)

[2]. Ўзбекистон янги тарихи II китоб. Масъул муҳаррир: Азизхўжаев А. - Тошкент: Шарқ, 2000. -Б. 42-43. (New history of Uzbekistan, Second Book. Responsible editor: Azizxujaev A. - Tashkent: Sharq, 2000. p. 42-43.)

[3]. ЎМА, 17-фонд, 1-рўйхат, 39-иш, 17-18 varaқлар (NAU, fond 17, list 1, work 39, p. 17-18.)

[4]. Хайдаров М. Ўзбекистонда совет давлати бошқаруви тизими. -Тошкент: АБУ МАТЛУБОТ-КОНСАЛТ, 2014. -Б.44. (Haydarov M. The governing sistem of the Soviet state in Uzbekistan - Tashkent: АБУ МАТЛУБОТ КОНСАЛТ, 2014, p. 44.)

[5]. Сафаров Б. Туркистонда совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ва эсерларнинг янги ҳукуматдаги фаолияти. // Ўзбекистон тарихи ёш тарихчилар нигоҳида. 2010. -Б. 43. (Safarov B. Establishment of Soviet power in Turkestan and the activities of esers in the new government. // The history of Uzbekistan in the eyes of young historians. 2010. p. 43.)

[6]. Ражабов Қ., Хайдаров М. Туркистон тарихи(19171924 й.). -Тошкент: Университет, 2002.-Б. 39-40. (Rajabov K, Haydarov M. The history of Turkestan (1917-1924 years). - Tashkent: University, 2002. p. 39-40.)

[7]. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi III kitob. -Toshkent: Sharq, 2010. -

В. 40-41. (Shamsutdinov R, Karimov Sh. Homeland history, 3rd book. - Tashkent: Sharq, 2010, p. 40-41.)

[8]. Сафаров Б. Туркистонда совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ва эсерларнинг янги ҳукуматдаги фаолияти. // Ўзбекистон тарихи ёш тарихчилар нигоҳида. 2010. -Б. 45. (Safarov B, Establishment of Soviet power in Turkestan and the activities of esers in the new government. // The history of Uzbekistan in the eyes of young historians. 2010. p. 45.)

[9]. Сафаров Б. Туркистонда совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ва эсерларнинг янги ҳукуматдаги фаолияти. // Ўзбекистон тарихи ёш тарихчилар нигоҳида. 2010. -Б. 45. (Safarov B, Establishment of Soviet power in Turkestan and the activities of esers in the new government. // The history of Uzbekistan in the eyes of young historians. 2010. p. 45.)

[10]. Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi II kitob. -Toshkent. Sharq, 2011. - В. 86. (Juraev N, Karimov Sh. History of Uzbekistan, 2nd book. - Tashkent. Sharq, 2010. p. 86.)

[11]. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi III kitob. -Toshkent: Sharq, 2010. -В. 95. (Shamsutdinov R, Karimov Sh, Homeland history, 3rd book. - Tashkent: Sharq, 2010. p. 95.)

[12]. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиш. Масъул муҳаррир: Алимova Д.А. -Тошкент: Шарқ, 2001. -Б. 58. (Witness and lessons of history. Assimilation of national wealth of Uzbekistan during the Sarism and Soviet colonial period. The responsible editor: Alimova D.A - Tashkent: Sharq, 2001. p. 58.)

[13]. ЎМА, 17-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 35-36 варақлар (NAU, fond 17. list 1, work 49, p. 35-36.)

[14]. Хайдаров М. The governing sistem of the Soviet state in Uzbekistan - Tashkent: ABU MATLUBOT KONSALT, 2014. p. 115. (Хайдаров.М. Ўзбекистонда совет давлати бошқарувитизими. -Тошкент: ABU MATLUBOT-KONSALT, 2014. -Б.115.)

[15]. Ражабов Қ. Ўзбекистон 1917-1924 йилларда мустабид совет тузумининг қарор топиши // Ўзбекистон миллий Энциклопедияси. 12-жилд. -Тошкент: ЎЗМЭ, 2006.-Б.106. (Rajabov Q, Establishment of the dictatorial Soviet regime in Uzbekistan in 1917-1924 // National Encyclopedia of Uzbekistan. Part 12. - Tashkent: NEU, 2006. p. 106.)

[16]. Хайдаров.М. Ўзбекистонда совет давлати бошқарувитизими. -Тошкент: ABU MATLUBOT-KONSALT, 2014. -Б.56 (Хайдаров М. The governing sistem of the Soviet state in Uzbekistan - Tashkent: ABU MATLUBOT KONSALT, 2014. p. 56.)

[17]. ЎМА, 35-фонд, 1-рўйхат, 108-иш, 113-варақ (NAU, fond 35. list 1, work 108, p. 113.)

[18]. Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. -Тошкент: Ўқитувчи, 1994. -Б. 50. (Asqarov A. History of Uzbekistan. - Tashkent: Okituvchi, 1994. p. 50.)

[19]. Акрамов А., Авлияқулов Қ. В.И. Ленин, Турккомиссия и укрепление Советский власти в Средней Азии. -Тошкент: Узбекистан, 1991. -С. 42. (Akramov A, Avliyokulov Q, Lenin V.I, Turkcommission and the strengthening of Soviet power in Central Asia. - Tashkent: O'zbekiston , 1991. p. 42.)

[20]. Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi II kitob. -Toshkent. Sharq, 2011. - В. 92-93. (Juraev N, Karimov Sh. History of Uzbekistan, 2nd book. - Tashkent. Sharq, 2010. p. 92-93.)

[21]. Ўзбекистон янги тарихи II китоб. Масъул муҳаррир: Азизхўжаев А. - Тошкент: Шарқ, 2000. -Б. 80. (New history of Uzbekistan, Second Book. Responsible editor: Azizxujayev A. - Toshkent: Sharq, 2000. p. 80.)

[22]. Каримов Ш. Қафасдаги қуш орзуси. -Тошкент: Фан, 1991.-Б.50 (Karimov Sh. The dream of a bird in a cage. - Tashkent: Fan, 1991. p. 50.)

[23]. Каримов Ш. Қафасдагиқушорзуси. -Тошкент: Фан, 1991.-Б. 50. (Karimov Sh. The dream of a bird in a cage. - Tashkent: Fan, 1991. p. 50.)

[24]. ЎМА, 17-фонд, 1-рўйхат, 287-иш,3-варақ. (CSAUz, fond 17, list 1, work 287, p. 3.)

[25]. Ўзбекистон тарихи II жилд. Масъул муҳаррир: Муртазаева Р.Х. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. -Б. 276. ( History of Uzbekistan, 2nd part. The responsible editor: Murtazaeva R.X - Tashkent: Yangi asr avlodi, 2015. p. 276.)

[26]. Ўзбекистон янги тарихи II китоб. Масъул муҳаррир: Азизхўжаев А. - Тошкент: Шарқ, 2000. -Б. 161-162. (New history of Uzbekistan, 2nd book. The responsible editor: Azizxujayev A. - Toshkent: Sharq, 2000. p. 161-162.)

[27]. Хайдаров М. Ўзбекистонда совет давлати бошқаруви тизими. -Тошкент: АБУ МАТЛУБОТ-КОНСАЛТ, 2014. -Б.88. (Haydarov M. The governing sistem of the Soviet state in Uzbekistan - Tashkent: ABU MATLUBOT KONSALT, 2014. p. 88.)

## ЎТМИШГА НАЗАР

---

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

---

## LOOK TO THE PAST

### МАХСУС СОН

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000